

## YOSHLAR HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

*Ro`ziyeva Malika Ilyos qizi*

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Ijtimoiy ish ta'lim yo'nalishi talabasi; e-mail: [malikaroziyeva7716@gmail.com](mailto:malikaroziyeva7716@gmail.com)*

*Ilmiy rahbar: Ibragimov Jahongir Toshniyozovich*

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi; e-mail: [Jahongir.5066@gmail.com](mailto:Jahongir.5066@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola jamiyatimiz, davlatimizdagi o'g'il, qizlarga ya'ni yoshlarga qaratilgan e'tabor va yoshlarning huquq va majburiyatlari haqida, yana davlat raxbarimizning yoshlarga berayotgan imkoniyatlardan yoshlar qanday foydalanayotganligi haqida ham fikr yuritilgan. O'zbekistonda va boshqa davlatlarda ham yoshlarga berilayotgan e'tabor, yoshlarning huquqlari hamda majburiyatlari haqida ham ma'lumotlar berib o'tilgan. Aqilli, bilimli, iste'dodli, har tarafdin intiluvchan yoshlarimizning yutuqlari haqida ham ma'lumotlar olishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** yoshlar, davlat, O'zbekiston, Yoshlar daftari, Prezident, Rossiya, AQSH, huquq, Konstitutsiya, imkoniyat, BMT konvensiyasi.

**Annotation:** This article discusses the rights and obligations of young people and the rights and obligations of young people in our society and state, as well as how young people use the opportunities given to young people by our state leader. In Uzbekistan and other countries, the attention given to young people, the rights and obligations of young people were also given information.

**Key words:** youth, state, Uzbekistan, Youth Register, President, Russia, USA, law, Constitution, opportunity, UN Convention.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются права и обязанности молодых людей и права и обязанности молодых людей в нашем обществе и государстве, а также то, как молодые люди используют возможности, предоставленные молодым людям лидером нашего государства. В Узбекистане и других странах также была предоставлена информация о внимании, уделяемом молодежи, правах и обязанностях молодежи.

**Ключевые слова:** молодежь, государство, Узбекистан, Молодежный регистр, Президент, Россия, США, закон, Конституция, возможность, конвенция ООН.

### **Kirish.**

Yoshlar (yosh fuqarolar) — 14 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslar. Har bir davlat yoshlar tushunchasini o'z tartib-qoidalari va shart-sharoitlaridan kelib chiqib turlicha belgilagan. Misol uchun, yoshlar tushunchasi

Xitoyda 18-35 yosh; AQSHda 18-25 yosh; Kanadada 16-28 yosh; Rossiyada 14-30 yosh etib belgilangan.

1999-yil 17-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi o'zining 54/120-sonli rezolyutsiyasi bilan Xalqaro yoshlar masalasi bilan shug'ullanuvchi vazirlar konferensiyasining 12-avgustni Xalqaro yoshlar kuni deb e'lon qilish haqidagi tavsiyasini ma'qulladi.

Ushbu kunda jahon hamjamiyatining diqqat-e'tibori yoshlarga oid masalalarga yana bir bor qaratiladi.

Eslatib o'tamiz, milliy qonunchiligimizga ko'ra 30-iyun O'zbekiston Respublikasida Yoshlar kuni etib belgilangan. Shuningdek, 2020-yil 30-iyunda Prezident Farmoniga asosan yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat boshqaruvi organi O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi.

Hozirgi kunda nafaqat O'zbekiston yoshlari balki diyarli butun dunyo yoshlariga bo'lgan e'tabor kuchaygan, ularga berilayotgan barcha imkoniyatlar yoshlarning yuksalishlari uchun va yanada yoqori cho'qqilarga erishishlari uchun poydevor vazifasini bajaryapdi. Yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar Siport soxasida, Ta'lim soxasida, Tadbirkorlik soxasida, axborot texnologiyalari soxasi va boshqa soxalarda imkoniyatlar yaratilib berilmoqda.

### **ASOSIY QISM**

Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Fitrat, „Bu dunyo kurash maydonidir. Sog'lom tan, o'tkir aql va yaxshi ahloq bu maydon qurolidir” deb aytganlarida ming karra haq edilar. Mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar tashkil etadi. Yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shunchalik kuchli bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan hozirgi kunda yaratib berilayotgan imkoniyatlar har bir yosh avlodning yuksalishi uchun poy devor vazifasini bajarmoqda. Ishonchim komilki, bunday imkoniyat va imtiyozlar yosh avlodni ertamizning munosib davomchilari etib tarbiyalashda yorqin istiqbollarni ochadi. Hozirda davlatimizda yoshlarga qaratilgan qaror va farmoishlar ishlab chiqilmoqda. Bularndan:

Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish:

jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish;

yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish;

yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish;

yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish.<sup>1</sup>

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o'zlarining "Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiya" kitobida ham yangi O'zbekistonni yaratishda yosh avlodlar haqida juda ko'p o'z fikrlarini keltirib o'tgan. Shavkat Miromonovich Mirziyoyev avvalo "Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishlari kerak", "Davlat – inson uchun" degan g'oyalar asosida yangi O'zbekistonda inson qadrini ulug'lash, uning qonuniy manfaatlarini ta'minlashni eng ustuvor vazifa sifatida belgilab olganlar.<sup>2</sup> Bu g'oyalar asosida davlatimizdagi barcha ishlar amalga oshmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6017-son Farmoniga muvofiq Yoshlar Ishlari Agentligi tashkil etildi<sup>3</sup>. Bu tashkilot tashkil etilgandan so'ng yoshlarga bo'lgan imkoniyatlar yanada oshdi. Misol uchun ijtimoiy ko'makka muhtoj yoshlarga yordam ko'rsatish uchun "Yoshlar daftari" tashkil etildi. Bu daftar Ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo'lgan, ishsiz yoshlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo'yicha ma'lumotlar bazasi hisoblanadi. Bu muvofiq yoshlarga turli xildagi imtiyozlar berilmoqda. Har bir yosh o'z qiziqishlariga muvofiq yordam ko'rsatiladi va ularning qiyint hayotiy sharoitdan olib chiqish uchun har bir o'zini-o'zi boshqarish organlaridagi mas'ul xodimlar tomonidan ishlar olib boriladi.

O'zbekiston Respublikasining bosh qomusi bo'lgan Konstitutsiyada ham yoshlar huquq va majburiyatlari to'g'risida moddalar keltirib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 79- modda

Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi.

Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga,

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida farmon

<sup>2</sup> Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi" O'zbekiston T.2022

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi PQ-4768-son qarori

ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.<sup>4</sup>

Har bir yoshga millati, dini, irqi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar qonun oldida barcha fuqorolar bir hisoblanishadi va ularga bir xil ko'mak ko'rsatiladi.

Hozirda Siport sohasida ham yoshlarga katta e'tabor qaratilmoqda misol uchu har bir MFY larida sport maydonlarining tashkil etilishi, turli xildagi siport o'yinlariga yoshlarni jalb qilinayotganliklari bunga yaqqol misol bo'la oladi deb hisoblayman. Boshqa davlatlar qatori O'zbekistonda ham siportning har bir yo'nalishi bo'yicha imkoniyatlar yaratib berilgan. bu imkoniyatlardan foydalangan holda yoshlarimiz jahon musobaqalarida faxirli o'rinlarni egallab O'zbekiston bayrog'ini yuksak cho'qqilarga olib chiqishmoqdalar.

Turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlarimizning ma'naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish har qachongidan ham dolzarbroq ekanini zamonning o'zi ko'rsatib turibdi. Prezidentimiz o'z so'zlarida shunday deydi "O'z uyingizni, o'z bolangizni o'zingiz asrang" Bu shior, bu da'vat hech qachon kun tartibidan tushmasligi kerak. Biz but inch va osoyishda davlatda yashayotganligimizdan faxrlanamiz.

### **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki har bir yoshning o'z huquq va majburiyatlari mavjud. Bu huquq va majburiyatlar aynan qonun, farmonlar bilan belgilab qo'yilgan. Yosh avlodga berayotgan bilimimiz vatanimiz kelajagi uchun bir poydevor hisoblanadi. Biz poydevorni qanchalik mustahkam qilsak, u shunchalik chidamli, har qanday vaziyatda qulamaydigan, yillar o'tsada o'z haybati bilan lol qoldiradigan bir ko'rinish kasb etadi. Bugungi kunda Prezidentimiz tomonida o'tkazilayitgan islohatlar, farmon va farmoyishlar shu poydevorni imkon qadar mustahkamlash uchun qilinayotgan harakatlardir. Bugungi kunda glabal maydonda kechayotgan tahlikali jarayonlarga nisbatan faqat mustaqil va qat'iy yondashuvga ega bo'lgan, ma'naviy va jismoniy barkamol yoshlargina qarshi tura oladi. Har bir yurtning asosiy kuchi bu ma'naviy va aqliy jihatdan yuksalgan va yuksalayotgan, kelajakka ishonch bilan qaray oladigan, ulkan cho'qqilarni egallashga harakat qilayotgan, rivojlanish uchun, vatan ravnaqi uchun hissa qo'shishga urinayotgan yoshlar hisoblanadi. Bu shunchalik ulkan kuchki, yurt bu kuchni qanday va qay yo'lga yo'naltirsa kelajak xuddi shu yo'l orqali ravnaq topadi. Bir daraxt misolida qaraydigan bo'lsak, biz bugun ekan daraxt ertaga o'z mevasini beradi. Uni qanday niholdan ekishimiz, qanday parvarish qilishimiz va ertaga qanday meva olishimiz o'zimizga bog'liqdir. Kerakli natijalarga erishish uchun to'g'ri tanlov, yaxshi parvarish va, e'tibor lozim.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 79- modda

Shu vatanda yashovchi har qanday shaxs o'z farzandiga, yaqinlariga, mahalla va hatto begona bola tarbiyasiga ham befarq bo'lmasligi darkor. Bir insondan butun bir jamiyat paydo bo'ladi. Agar biz birgina o'sayotgan yosh avlodning kelajagi uchun, hayoti uchun qo'limizdan kelgan yordamni ayamasaq, biz butun bir jamiyatga yordam bergan bo'lamiz. Tashabbus faqat keng quloch yoyaversin, degan purma'no hikmat bejiz aytilmagan. Shu sababdan ham yurtimiz prezidenti yoshlarga bo'lgan e'tiborni ilk prezidentlikka saylanganliklaridan boshlab rivojlantirganlar.

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.<sup>5</sup>

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. Shavkat Mirziyoyev “Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi” O'zbekiston T 2022
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
3. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
4. Ra'no Qodirberganova Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumani 22-maktab o'quvchisi O'ZBEKISTON KELAJAGI-YOSHLAR QO'LIDA! «BESH TASHABBUS» YOSHLARGA QANOT!
5. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida farmon
6. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

---

<sup>5</sup> BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidan